

ZAMONAVIY PEDAGOGIKANING ASOSIY TAMOYILLARI VA JADIDLAR QARASHLARI: TARIXIY TAJRIBANING DOLZARBLIGI

Mehmonova Chinora Ro‘ziboy qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy pedagogikaning asosiy talablari bilan jadidlar pedagogik qarashlari tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tarixiy tajribaning dolzarbligi ko‘rsatib o‘tiladi. Jadidlarning ta’limdagi innovatsion yondashuvlari va milliy ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugungi pedagogik tamoyillar bilan uyg‘unlashib, ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot zamonaviy ta’lim jarayonlarida milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi

Kalit so‘z: Zamonaviy pedagogika, jadidlar pedagogikasi, tarixiy tajriba, ta’lim islohotlari, milliy ma’rifatparvarlik, pedagogik meros, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Zamonaviy ta’lim jarayoni tezkor o‘zgarishlarga duch kelmoqda va bu jarayonda pedagogikaning yangi talab va tamoyillari yuzaga kelmoqda. Xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion metodlar ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, tarixiy pedagogik tajriba, xususan, jadidlar pedagogikasi, milliy ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ta’limni yangilashga oid qarashlari ham bugungi kunda o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — zamonaviy pedagogikaning asosiy talablarini jadidlar pedagogik qarashlari bilan solishtirib, tarixiy tajribaning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqot doirasida pedagogik merosning ta’lim islohotlarida samarali qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi.

Maqola uch asosiy bo‘limdan iborat bo‘lib, unda zamonaviy pedagogikaning talablari, jadidlar pedagogik qarashlari hamda ularning uyg‘unligi tahlil qilinadi. Bu ish ta’lim sohasida milliy qadriyatlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar uyg‘unligini ta’minlashga yangi qarashlar kiritishga xizmat qiladi

Zamonaviy pedagogika zamon talablariga mos ravishda ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirishga katta e’tibor qaratadi. Ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchining shaxsiy salohiyatini to‘liq ochish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Innovatsion pedagogik metodlar, xususan interaktiv o‘qitish, texnologiyalardan foydalanish va diferensial yondashuv, ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, umrbod ta’lim kontseptsiyasi yoshlarning doimiy o‘zini rivojlantirishini ta’minlaydi. Ijtimoiy va madaniy moslashuvchanlik esa o‘quvchilarni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishga yordam beradi. Shu sababli, zamonaviy pedagogika o‘zgaruvchan jamiyat talablariga tez moslasha oladigan, innovatsion, shaxsga yo‘naltirilgan va keng qamrovli ta’lim tizimini yaratishga intiladi

O‘zbek xalqining pedagogik merosida jadidchilik harakati alohida o‘rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bu harakat ta’lim orqali millatni uyg‘otish,

rivojlantirish va taraqqiyot sari yetaklashni o‘z oldiga maqsad qilgan edi. Jadidlarning eng asosiy yutug‘i – ular ta’limni faqat diniy-ma’rifiy doirada emas, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy taraqqiyot vositasi sifatida ko‘rganlaridir.

Jadid pedagoglar — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar – eski usul maktablar o‘rniga “yangi usul” maktablarini joriy etib, ta’lim jarayoniga amaliy fanlar, ona tili, tarix, hisob, geografiya kabi darslarni kiritishga intildilar. Ularning fikricha, ta’lim milliy va zamonaviy bo‘lishi, bolani erkin fikrlovchi, faol, vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashi kerak edi.

Jadidlar o‘quvchi shaxsiga markaz sifatida qaragan, ya’ni bugungi pedagogikadagi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasining ilk milliy ildizlarini yaratgan. Ular o‘qituvchini shunchaki bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, jamiyatni o‘zgartiruvchi kuch deb bilganlar. Ta’limning maqsadi, jadidlar nazarida, shaxsning barkamolligi, jamiyatga foydali bo‘lishi va millat ravnaqi uchun xizmat qilishi kerak edi.

Shu jihatlar bilan jadidlar pedagogikasi nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham o‘ta dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimida milliy meros va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unligini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Jadidlar pedagogikasi va zamonaviy pedagogika tamoyillari orasida ko‘plab umumiyliklar mavjud. Jumladan, jadidlarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tanqidiy fikrlash, amaliy bilim va vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan qarashlari hozirgi ta’lim islohotlari bilan hamohangdir.

Jadidlarning ta’limni millat kelajagi bilan bog‘lash g‘oyasi, ularning o‘quvchini faol shaxs sifatida tarbiyalashga intilishi bugungi pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unlashadi. Xususan, bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuv, o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda eta olishi, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish kabi tamoyillar jadidlar ta’lim tizimida ham asosiy o‘rin tutgan.

Tarixiy tajribani chuqur o‘rganish va undan foydalanish zamonaviy ta’limni milliy qadriyatlarga tayangan holda rivojlantirish imkonini beradi. Jadidlarning ilg‘or qarashlari nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki amaliy-uslubiy jihatdan ham o‘qituvchilar tayyorlash, dars jarayonini takomillashtirish va ta’lim muassasalarining ma’naviy-milliy muhitini boyitishda foydali bo‘lishi mumkin.

Shunday ekan, jadidlar pedagogik merosini zamonaviy talablarga mos tarzda tahlil qilish, ularni ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan qayta tiklash ta’lim sifatini oshirish, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillari – shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tanqidiy fikrlash, innovatsion metodlar va umrbod ta’lim konsepsiyasi – o‘zbek jadidlarining ilg‘or pedagogik qarashlari bilan mushtarakdir. Jadidlar harakati vakillari o‘z davrida ta’limni isloh qilish orqali millatning taraqqiyotiga erishish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsalar, bugungi kunda bu g‘oyalar zamonaviy ta’lim siyosatida yangi mazmun kasb etmoqda.

Tarixiy pedagogik tajribani zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish, ayniqsa o‘qituvchi tayyorlashda, ta’lim mazmunini milliy va ma’naviy qadriyatlar bilan boyitishda

muhim omil hisoblanadi. Jadidlar merosi bu borada bebaho manba bo‘lib, uni amaliyotga joriy qilish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, o‘zbek jadidchiligidagi pedagogik qarashlarni chuqur o‘rganish va ularni bugungi ta’lim islohotlariga integratsiya qilish — zamonaviy ta’limni milliy asoslarda barpo etish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Fan, 1992. – 160 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2006. – 256 b.
3. Qodirov N. O‘zbek jadidlarining pedagogik qarashlari. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2020. – 184 b.
4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2010. – 304 b.
5. Samarqandiy Z. Zamonaviy pedagogik tamoyillar va tarixiy tajriba uyg‘unligi // Ta’lim va tarbiya. – 2019. – №3. – B. 45–49.
6. Yusupov A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Ilm Ziya, 2021. – 212 b.